

## BOJXONA TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZISH JINOYATINING JINOIY-HUQUQIY TUZILISHI

Asatov Sardor Umirtosh o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi

Magistratura tinglovchisi

[asatovsardor17@gmail.com](mailto:asatovsardor17@gmail.com)

+99893-128-58-11

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11267026>

**Annotatsiya.** Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatlarining sodir etilishi natijasida davlatimiz iqtisodiyotiga yetkazilayotgan zarar miqdori kundan kunga o'sib bormoqda. Mazkur turdagi qilmishlarning jinoiy huquqiy tuzilishini o'rganish ularni kvalifikatsiya qilishda va aybdor shaxslarga jazo tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatlarining jinoiy huquqiy tuzilishining muhim jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish, iqtisodiyot, bojxona nazorati, tergov harakatlari, jinoyat, bojxona chegarasi.

### CRIMINAL-LEGAL STRUCTURE OF THE CRIME OF VIOLATION OF CUSTOMS LEGISLATION

**Abstract.** The amount of damage being inflicted on our country's economy as a result of violations of customs legislation is increasing day by day. Studying the criminal legal structure of such acts is of significant importance in qualifying them and sentencing of the guilty parties. This article highlights key aspects of the criminal legal structure of offenses related to the violation of customs legislation.

**Key words.** violation of customs legislation, economy, investigations, customs control, criminal description, crime, customs border.

### УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ СТРУКТУРА ПРЕСТУПЛЕНИЯ НАРУШЕНИЯ ТАМОЖЕННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

**Аннотация.** Сумма ущерба, причиненного экономике нашей страны в результате преступлений по нарушению таможенного законодательства, увеличивается с каждым днем. Изучение уголовно-правовой структуры данных видов деяний имеет большое значение для их квалификации и назначения наказания виновным. В данной статье рассмотрены важные аспекты уголовно-правовой структуры преступлений нарушения таможенного законодательства.

**Ключевые слова.** Нарушение таможенного законодательства, экономика, таможенный контроль, следственные действия, преступность, таможенная граница.

Ma'lumki, tovar-moddiy boyliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish nafaqat davlat byudjetiga undiriladigan bojxona to'lovlarining undirilmay qolishi bilan, balki ta'qiqlangan, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarning mamlakatimiz hududiga turli noqonuniy yo'llar bilan kirib kelishi hamda respublikamiz uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlarning nazoratsiz chet davlatlarga chiqib ketishi bilan ham xavfli hisoblanadi. Bojxona to'lovlari - bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar-

moddiy boylıklar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan qonun hujjatlariga asosan undiriladigan to'lovlar hisoblanib, davlat byudjetini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tushumlar manbaidir. Shu sababli, ushbu to'lovlarning o'z vaqtida va to'g'ri undirilishi davlatning iqtisodiy rivojlanishi barqarorligini ta'minlaydi.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar turkumiga kiruvchi bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati o'zining ijtimoiy xavfliligi bilan ushbu turdagi boshqa jinoyatlardan alohida ajralib turadi. Mazkur turdagi jinoyatlarni jinoiy-huquqiy jihatdan to'g'ri tahlil qilish uchun, avvalo, mazkur turdagi jinoyatlarning tajovuz obyekti qaratilgan bojxona sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning tegishli normalarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Amaldagi tartib qoidalarga muvofiq, bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi kerak.

**Bojxona nazorati** - O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir. Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui **bojxona rasmiylashtiruvi** hisoblanadi.

[ 1].

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarni undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlar Bojxona kodeksi bilan tartibga solinadi. Ushbu kodeksning 2-moddasida bojxona to'g'risidagi qonunchilik Bojxona kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat ekanligi, shuningdek, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi belgilab qo'yilgan.

Qonunchilikka ko'ra, tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o'tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.[ 2]

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasi **“Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish”** deb nomlanib, ushbu moddaning birinchi qismi dispozitsiyasiga ko'ra, bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur modda blanket dispozitsiyali hisoblanadi. Chunki bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish holatlarini ifodalovchi belgilar jinoyat huquqida emas, balki bojxona qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Jinoyat kodeksining 182-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortishning zaruriy sharti shuki, tovar va transport vositalarini ko'p miqdorda

qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 227<sup>19</sup>, 227<sup>20</sup>, 227<sup>21</sup>-moddalar va 227<sup>22</sup>-moddasining birinchi qismi ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng bir yil davomida yana shunday huquqbuzarliklardan birini ko'p miqdorda sodir etgan bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, tovar yoki boshqa qimmatliklarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan ko'p miqdorgacha o'tkazganlik uchun har doim, shaxs aynan shunday huquqbuzarlik uchun bir yil davomida bir necha marta ma'muriy javobgarlikka tortilganligidan qat'i nazar, ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqarishini unutmazlik lozim.

Jinoyat qonunchiligiga muvofiq, ma'lum bir ijtimoiy qilmishni jinoyat sifatida baholash uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisi jinoyat tarkibini tashkil etadi. Jinoyat tarkibining obyekt va obyektiv tomonini to'g'ri aniqlash jinoyatlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasini aniqlashda hamda jinoyatni to'g'ri malakalashda obyektiv belgilarning o'rni ahamiyatlidir.

M.Usmonaliyev "Jinoyatning obyekt har bir jinoyat tarkibining zaruriy belgisidir. Jinoyatning obyekt har bir jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lishi bilan birga muayyan jinoyatning mohiyati va uning ijtimoiy xavflilik darajasini ham belgilaydi" deb ta'kidlab o'tgan.[ 3] Shu sababli, ko'rib chiqilayotgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining jinoiy-huquqiy jihatdan to'g'ri tavsiflash maqsadida jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilariga to'xtalib o'tamiz. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining bevosita obyekt tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tkazishning belgilab qo'yilgan tartibi hisoblanadi.

M.X.Rustambayev ushbu ta'rifni yana ham to'ldirib, "bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining bevosita obyekt tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tkazishning belgilab qo'yilgan tartibi va shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti asoslari hisoblanishini" ta'kidlagan.[ 4]

Tadqiqotchi J.M.Ermashov fikricha esa, "erkin fuqarolik muomalasidagi tovarlar va boshqa predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi va shartlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlarni bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining bevosita asosiy obyekt hisoblanishini va shu bilan birga mazkur jinoyatning maxsus obyekt iqtisodiyot sohasining xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar ekanligini hamda turdosh obyekt iqtisodiyot asoslariga rioya qilish tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi". [5 ]

Bizning fikrimizcha, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining obyekt haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlarda mazkur jinoyatning obyekt masalasi to'liq ochib berilgan.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatlarining predmetlari moddiy dunyoning juda ko'plab komponentlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shu sababli mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning predmetini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Birinchi**dan, mazkur modda dispozitsiyasida jinoyat predmeti sifatida faqatgina "tovar va boshqa qimmatliklar" deb ko'rsatilgan bo'lib, ushbu tovar va boshqa qimmatliklarga aynan nimalar kirishini batafsil aniqlab olish uchun bir qator normativ-me'yoriy hujjatlarga murojaat qilishimiz lozim.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi 13-moddasida ko‘rsatilgan bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan har qanday ko‘char mol-mulk, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta boyliklari va boshqa qimmatli qog‘ozlar, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, intellektual mulk obyektlari, transport vositalari, bundan tovarlarni va yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan transport vositalari mustasno, “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 3-moddasining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma‘rifiy, ma‘naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko‘char ashyolar, bundan tashqari o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari mazkur jinoyat predmeti hisoblanishi belgilangan.

**Ikkinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 246-moddasida keltirilgan Kontrabanda jinoyatining predmeti hisoblanadigan kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlari, shuningdek giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni ko‘rib chiqilayotgan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish jinoyati predmetlaridan farqlash lozim. Chunki mazkur ikkala jinoyatlarning dispozitsiyasi deyarli bir xil bo‘lib, mazkur ikkala jinoyatlar faqatgina predmeti bilangina bir-biridan farq qiladi.

**Uchinchidan**, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining predmetlarining xilma-xilligi, juda keng qamrovli ekanligi hamda ushbu predmetlarning ko‘plab turlarini respublikamiz bojxona chegaralari orqali olib kirish, olib chiqish va tranzit tarzida olib o‘tish tartibi alohida normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, naqd xorijiy va milliy valyuta olib kirilishi va olib chiqilishini tartibga solish 22.10.2019-yildagi O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida” gi O‘RQ-573-son Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 30.01.2018 yildagi “Jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi naqd valyutasi va naqd chet el valyutasini O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqish qoidalarini tasdiqlash haqida” gi 66-sonli qarori bilan, madaniy boyliklar muomalasini tartibga solish esa 29.08.1998-yildagi “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi 678-I-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida” gi VM ning 23.03.1999-yildagi 131-sonli qarori asosida amalga oshiriladi. Faqatgina naqd valyuta va madaniy boyliklar bo‘yicha ikkita Qonun va ikkita Vazirlar Mahkamasi qarori, shuningdek yana bir qator qonunosti hujjatlari mavjuddir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.12.2017-yildagi PF-5286-son Farmoni 2-ilovasida O‘zbekiston Respublikasiga import qilinishi (olib kelinishi) taqiqlangan buyumlar ro‘yxati keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, tovarlar va transport vositalari, o‘simlik va hayvonot olami, intellektual mulk obyektlari, issiqlik energiyasi va boshqa shu kabi mazkur jinoyat predmetlarini bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqishning ham har birining alohida tartiblari mavjudligi ushbu yo‘nalishdagi qonunchilik hujjatlarining naqadar ko‘p ekanligi bilan hamda ushbu sohaning keng qamrovli ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur

turdagi jinoyatlarni fosh etishda, kvalifikatsiya qilishda hamda tergov harakatlarini amalga oshirishda alohida bilimlarni hamda chuqur masuliyatni talab etadi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining **obyektiv tomoni** tovarlar yoki boshqa qimmatliklarni bojxona nazoratini chetlab, bojxona nazoratidan yashirib, bojxona hujjatlari yoki bojxona identifikatsiyalash vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiya qilmasdan yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, chegarani buzib o'tib tovarlar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazishda ifodalanadi. Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish mazkur usullarning birortasi orqali amalga oshirilmagan taqdirda ushbu jinoyat bilan bog'liq javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" gi 2-sonli Qarorida mazkur jinoyatning obyektiv tomon belgilariga batafsil tushuntirishlar berib o'tilgan.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining **subyektiv tomoni** – jinoyat sodir etilgunga qadar 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati **subyektiv tomondan** to'g'ri qasddan sodir etiladi. Ya'ni jinoyatchi tovar va boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tayotganligini biladi hamda ushbu jinoyatni sodir etishni xohlaydi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda **motiv** va **maqsadning** ahamiyati yo'q.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi 182-moddasi 2-qismi "b", "v" va "g" bndlari bilan sodir etilgan jinoyatlarni malakalashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan holatlardan biri shundaki, ushbu holatlar bo'yicha jinoiy javobgarlik shaxslarning ilgari ushbu harakatlari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligidan qat'iy nazar, bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi faqat ko'p miqdorda bo'lgan holdagina kelib chiqadi.

Har qanday turdagi jinoyatlarda bo'lgani kabi, bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzish jinoyatining jinoiy huquqiy tuzilishini bilish ushbu jinoyatlarni tergov qilishda, kvalifikatsiya qilishda hamda jazo tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 20.02.2023-yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" gi 2-sonli Qarori
3. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Tashkent, Yangi asr avlodi 2005 154-b
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik 2018-140 b)
5. Ermashev J.M. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarning turi sifatida bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning obyektiv belgilari tahlili. Kriminologiya va odil sudlov ilmiy-amaliy jurnali 2023-yil 1-son. Toshkent davlat yuridik universiteti 16-29 b